O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 27 - iyul 438-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyundagi 301-sonli qarori to‘g‘risida

Toshkent shahrini Toshkent viloyati bilan bog‘lovchi Mirzo Ulug‘bek va Yashnobod tumanlari hududidan o‘tuvchi yangidan qurib bitkazilgan Yangi O‘zbekiston ko‘chasida ilg‘or xorijiy arxitekturadan foydalangan holda, milliy dizaynga uyg‘un va hamnafas bo‘lgan zamonaviy xizmat ko‘rsatish, savdo va ko‘ngilochar obyektlar hamda yangi ko‘p qavatli turarjoy massivlarini barpo etish orqali aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlarini jadallashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-avgustdagi “Respublika hududlarida “Business city” zamonaviy ishbilarmonlik markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3895-sonli qaroriga muvofiq hamda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasini o‘zida aks ettiruvchi mamlakatimiz poytaxtiga kirib kelishda yangi arxitektura yechimlarini yaratish, aholi uchun sayr qilish va hordiq chiqarishga mo‘ljallangan barcha xizmatlarni o‘zida mujassam etuvchi yangi turarjoy massivlari qurilishini jadallashtirish hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan maqsadida **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyundagi 301-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent shahar hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Qurilish vazirligi va Transport vazirligining Yangi O‘zbekiston ko‘chasi bo‘ylab infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan bosh rejaga muvofiq “Yangi O‘zbekiston ko‘chasi” ishbilarmonlik markazini tashkil etish hamda uning hududida xizmat

ko‘rsatish va servis obyektlari, savdo va ko‘ngilochar majmualar, sayilgohlar hamda ko‘p qavatli turarjoylarni (keyingi o‘rinlarda — loyiha obyektlari) barpo etish;

Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligining “Yangi O‘zbekiston ko‘chasi” ishbilarmonlik markazini tashkil etish uchun Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek va Yashnobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani hududidan ilovaga muvofiq tanlangan jami 241,93 gektar, shundan 198,12 gektar sug‘oriladigan yer maydonining yer fondi toifasi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan aholi punktlarining shahar va posyolkalar qurilishi yerlari toifasiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi ma’lumot uchun qilinsin.

Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrorov) mazkur qarorga asosan davlat yer kadastri ma’lumotlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Toshkent shahar hokimligi huzurida davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etilgan “Avtomobil yo‘li bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish direksiyasi” “Yangi O‘zbekiston ko‘chasi” ishbilarmonlik markazini qurish va ekspluatatsiya qilish direksiyasi” (keyingi o‘rinlarda — Direksiya) deb qayta nomlanagangiligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Belgilansinki:

Direksiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-avgustdagi “Respublika hududlarida “Business city” zamonaviy ishbilarmonlik markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3895-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarida «Business city” zamonaviy ishbilarmonlik markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-avgustdagi 3895-sonli qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” gi 461-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiradi hamda unga mazkur qarorlarda nazarda tutilgan barcha imtiyozlar tatbiq etilishi;

“Yangi O‘zbekiston ko‘chasi” ishbilarmonlik markazi hududidagi yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali sotishdan tushgan tushumlar (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qaroriga 2-ilovaning 39-bandi “a” — “d” kichik bandlarida nazarda tutilgan xarajatlar chegirib qolingan holda) Direksiyaga o‘tkazilishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning ushbu qarorga muvofiq olinishi sababli qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining

o‘rnini qoplash bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari mazkur yer uchastkalari sotilgandan so‘ng 2025-yildan boshlab ikki yil davomida teng ulushlarda Direksiya tomonidan to‘lanishi;

Moliya vazirligi tomonidan Direksiyaning asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra, unga loyiha obyektlari hududigacha tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yetkazib berish hamda zarur infratuzilmani yaratish ishlari uchun mablag‘lar ajratilishi;

Direksiya faoliyati yakunida uning tasarrufida qoladigan mablag‘lar respublika va mahalliy budjetlarga teng ulushlarda yo‘naltirilishi ma’lumot uchun qabulsin.

5. Loyiha obyektlari hududigacha tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yetkazib berish, ko‘chirish hamda zarur infratuzilmani yaratish maqsadida:

a) quyidagilar tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq Direksiya mablag‘lari hisobidan:

elektr energiyasi, tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqova suv tizimini qurish va ko‘chirish ishlari — tegishlicha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ va “O‘zsuvta’minot” AJ tarkibidagi tashkilotlar buyurtmachiligida;

irrigatsiya va ochiq kollektorlarni yopiq tarmoqqa o‘tkazish yoki ko‘chirish ishlari — Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar buyurtmachiligida amalga oshirishi;

b) aloqa tarmoqlarini qurish va ko‘chirish ishlari — “O‘zbektelekom” AK buyurtmachiligida o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi;

v) elektr va tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqova suv tizimi, aloqa tarmoqlarini qurish hamda irrigatsiya va ochiq kollektorlarni yopiq tarmoqqa o‘tkazish yoki ko‘chirish ishlari bo‘yicha (qurilishi amalga oshirilayotgan ob’ektlar bundan mustasno) bosh loyiha va bosh pudrat tashkilotlari buyurtmachilar tomonidan xarid qilish tartib-taomillariga muvofiq belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Qurilish bosh boshqarmasi (E.Po‘latov) loyiha obyektlarining loyiha-smeta hujjatlari qurilish normalari va qoidalariga moslashtirilishi, sohaga oid talablar asosida belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi, qurilish loyiha hujjatarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy

yordam berish vazifasi yuklatilsin.

7. Viloyat prokuraturasi “Yangi O‘zbekiston ko‘chasi” ishbilarmonlik markazi hududidagi yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali investorlarga oshkora va shaffof tarzda sotish, yo‘naltiriladigan mablag‘lardan oqilona, tejamkor va samarali foydalanishda qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha nazorat o‘rnatsin.

8. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 27 iyuldagi
438-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani hududidan tanlangan yer fondi toifasi o‘zgartirilayotgan yer uchastkalari

RO‘YXATI

T/r	Hudud nomi	Yer uchastkalari egalari va yerdan foydalanuvchilar nomi	Kontur raqami	Jami yer uchastkasi (gektar)	shundan:		Tuproq ball boniteti	Yerdan foydalanish huquqi turi
					sug‘oriladigan yerlar	boshqa yerlar		
1.	Yuqori Chirchiq tumani	«Tursunmurotova Odina Mevasi» FX	597k	6,91	6,8	0,11	62,0	Ijara
		«Future Gardener» MChJ	591k	9,63	9,11	0,52	64,1	Ijara
		«Toshkent bog’rog’lari» MChJ	592k, 591k, 632t	38,09	36,57	1,52	52,5	Ijara
		«Marka Agro Invest» MChJ	597k, 625k	8,36	7,99	0,37	62,0	Ijara
		«Serfayz-Eco-Agro» FX	627k, 625k, 597k	13,84	12,72	1,12	41,0	Ijara
		«Mirzajalil Chorva» FX	606k	7,84	7,1	0,74	54,0	Ijara
	JAMI		**11**	**84,67**	**80,29**	**4,38**	**x**	
HAMMASI			**53**	**241,93**	**198,12**	**43,81**	**x**	

Izoh. Mazkur ilovada keltirilgan yer uchastkalari egalari (foydalanuvchilari) va yer o‘lchamlariga kadastr hujjatlari hamda hududning batafsil rejalashtirish loyihasi asosida aniqlik kiritilishi mumkin.